

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARINING KREATIV FAOLIYATINI XALQ OG‘ZAKI  
IJODIDAN FOYDALANISHDA ILMIY- NAZARIY METODIK ASOSLAR.**

**Abduraximova Muxabbat Alayevna**  
Termiz davlat pedagogika instituti  
“Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi  
[Tel:+998902266279](tel:+998902266279)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kreativ faoliyatini xalq og‘zaki ijodidan foydalanish orqali o‘qitish metodikasi pedagogik va kreativ faoliyati darajasini aniqlash haqida fikrlar bildirilgan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kreativ faoliyatini xalq og‘zaki ijodidan foydalanish orqali o‘qitish metodikasining takomillashtirishga ta‘sir etuvchi omillar va vositalarni o‘rganish masalalari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kreativ, kompetensiya, ta‘lim-tarbiya, kreativ xarakter, uzluksiz ta‘lim tizimi, ijodkorlik, metodlar va texnologiyalar

**SCIENTIFIC AND THEORETICAL METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE USE  
OF FOLK ORAL LITERATURE IN THE CREATIVE ACTIVITIES OF FUTURE  
TEACHERS.**

Abdurakhimova Mukhabbat Alayevna  
Termez State Pedagogical Institute  
Teacher of the Department of "Pedagogy"  
Tel:+998902266279

**Abstract:** This article presents ideas on determining the level of pedagogical and creative activity of the methodology of teaching the creative activity of a future primary school teacher through the use of folk art. Issues of studying the factors and tools influencing the improvement of the methodology of teaching the creative activity of a primary school teacher through the use of folk art are revealed.

**Keywords:** creative, competence, education, creative character, continuous education system, creativity, methods and technologies

**НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ  
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАРОДНОЙ УСТНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ТВОРЧЕСКОЙ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ.**

Абдурахимова Мухаббат Алаевна  
Термезский государственный педагогический институт  
Преподаватель кафедры «Педагогика»  
Тел.: +998902266279

**Аннотация:** В данной статье представлены идеи определения уровня педагогической и творческой активности методики обучения творческой деятельности будущего учителя начальной школы с использованием народного искусства. Раскрыты вопросы изучения факторов и инструментов, влияющих на совершенствование методики обучения творческой деятельности учителя начальной школы с использованием народного искусства.

**Ключевые слова:** творчество, компетентность, образование, творческий характер, система непрерывного образования, креативность, методы и технологии.

Bugungi kunda ta'lim tizimi globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivoji hamda kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuvning kuchayishi ta'sirida sezilarli darajada yangilanmoqda. Bu jarayon boshlang'ich ta'limga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, o'qitish mazmuni va metodikasida yangi talablarga ehtiyoj tug'dirmoqda. Endilikda dars jarayonida o'quvchi shaxsining ijodiy fikrlashi, mustaqil ravishda xulosa chiqarishi, samarali muloqotga kirisha olishi asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalq og'zaki ijodi kabi milliy pedagogik manbalardan foydalanish zamonaviy didaktik yondashuvlarda yangicha talqin etilmoqda. Bunday materiallar o'quvchilarning tasavvurini boyitadi, ijodiy izlanishlariga turtki beradi hamda milliy qadriyatlarga asoslangan ta'limni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ushbu jarayonni chuqur anglash va metodik jihatdan to'g'ri qo'llay olish muhim kasbiy kompetensiya sanaladi.

Bugungi yurt taraqqiyotida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodidan foydalanishning ilmiy- nazariy pedagogik asoslar alohida ahamiyatiga ega bo'lib, yoshlarni o'qitishda yangi imkoniyatlar qo'lga kiritilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustda xalq ta'limi, oliy ta'lim xodimlari bilan bo'lgan muloqotda bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, bugungi kunda ta'lim-tarbiyaviy jarayonda faoliyat olib boradigan professor-o'qituvchilarning obro'sini ko'tarish, shu bilan bir qatorda bugun professor-o'qituvchilarning o'zlari ham ta'lim-tarbiyaviy jarayonga yangicha ijodiy yondashishlari kerakligi haqida fikr yuritdi. Bundan tashqari, Prezidentimizning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ta'lim-tarbiyaning uzviy bog'liqligini yanada kuchaytirish maqsadida "Sharqona qarashlardagi ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi" [3], deb ta'kidladi. Demak, bugungi professor-o'qituvchilar ta'lim-tarbiya ishlarida faol qatnashar ekan, ular o'z faoliyatlarini zamon bilan hamohang tarzda tashkil etishlari talab etiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodidan foydalanishda ilmiy- nazariy metodik asoslariga to'xtalar ekanmiz, yangi ta'lim siyosatiga binoan, kasbiy tajriba bilan ko'nikma va malakalar integrasiyasi sifatida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari bevosita aks etiriladi. Biroq kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodidan foydalanishda nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integrasiyasi mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, balki shu bilan birga kreativ faoliyatni xalq og'zaki ijodidan foydalanishda metodologiyasidan xabardor bo'lishi, kreativ faoliyatni xalq og'zaki ijodidan foydalanishni takomillashtirishni va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etiladi.

Kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodidan foydalanishda shaxsning o'zaro mos ravishda bajarilgan kreativ faoliyati va ijodiy mahsulotlarni ajratish borasidagi rivojlanish sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning tezligi va kengligi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va ijodiy qobiliyatlari, shuningdek, mavjud sharoitlar, hayotiy muhit va kasbiy rivojlanish jarayonlariga bog'liq bo'ladi. Zamonaviy sharoitda kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodida pedagogning kreativ sifatlarga ega bo'lishini taqozo qiladi.

O'zbekistonda kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy va ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlikni o'rnatishi, o'quv jarayonida

xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng qo'llash, talabalar va ilmiy-pedagog kadrlarning kasbiy bilimlari, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol metodlardan samarali foydalanish hozirgi kunda muhim masalalardan biri. Bu masala O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini kengaytirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va amalga oshirish" kabi asosiy vazifalar sifatida belgilangan.

Shunga muvofiq bo'lajak o'qituvchilarning kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodidan foydalanishda o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda o'qituvchilarning kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodidan foydalanishda orqali kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri. Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodidan foydalanishda o'qitish metodikasi ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli metodlar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kreativlik- shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namayon bo'ladi.

Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiya qamrab oladi. Shaxs kreativligi uning fikrlashida, muloqotida, his-tuyg'ularida va amalga oshirayotgan faoliyatlarida o'z ifodasini topadi. Kreativlik shaxsni umumiy tarzda yoki uning alohida xususiyatlarini ta'riflashda namoyon bo'ladi. Shuningdek, kreativ iqtidor muhim bir omil sifatida ajralib turadi va zehni o'tkirlikni shakllantiradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodidan foydalanib o'qitish metodikasini takomillashtirishda kreativ faoliyat yuritish o'qituvchilarda talabalik yillaridayoq shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Kreativlik pedagogika fanida qabul qilingan yangi materiallarni o'qituvchining o'z faoliyatlarida mohirona, o'rinli qo'llay olishi bilan ham belgilanadi. Zero, o'qituvchilarning kreativ faoliyati shunday darajada faollashdiki, natijada, xalq og'zaki ijodidan foydalanib o'qitish metodikasini ishlab chiqish faoliyati mualliflik metodlar va texnologiyalarni taqdim etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухаббат Абдурахимова: Allayevna, A. M. (2024). THE ROLE OF UZBEK FOLKLORE GENRES IN SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION. International Journal of Advance Scientific Research, 4(03), 226-231.
2. Мухаббат Абдурахимова: Allayevna, A. M. (2023). UZBEK PEOPLE ORAL CREATIVITY TOOLS UZBEK PEOPLE IN PEDAGOGY HELD PLACE. World Bulletin of Social Sciences, 27, 96-98.
3. Мухаббат Абдурахимова: Allayevna, A. M. (2024, December). IMPORTANCE OF USING NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES FOR TEACHING FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON FOLKLORE. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 5-9).
4. M.A.M.A.Abduraximova Muxabbat Allayevna (2024). MILLIY TARBIYA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINING ASOSI SIFATIDA. Research Focus, 3 (11), 51-54. doi: 10.5281/zenodo.14317451

5. Мухаббат Абдурахимова: Allayevna, A. M. (2023). DEVELOPMENT OF USE OF FOLK ORAL CREATION TOOLS IN SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF FUTURE TEACHERS. Academia Repository, 4(12), 15-17.
6. Мухаббат Абдурахимова: Allayevna, M. A. (2022). Factors that shape our national pride in the minds of students in extracurricular reading classes in the primary grades.
7. Abduraximova.M.A. Xalq pedagogikasi -Termiz,2025
8. Abduraximova.M.A. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodidan foydalanib o'qitish uchun ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy metodik qo'llanma va tavsiyalar. – Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2024. –28 b.

C M R T